

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№10

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025 oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 460 sahifa.
2025-yil, 21-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY TAJRIBASI	37
Kadirxodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA‘LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA‘RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA‘LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA‘LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA‘MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА.....	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES.....	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI.....	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI.....	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILYIY MEXANIZMLARI.....	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA.....	203
Abduraxmonov Akmal Nurmatov o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Mdraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyevna	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abdugarimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'lqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI.....	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS.....	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI.....	392
Jalolov Abbasxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK.....	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ МРІ	426
Мамаризоев Жахонгир Isoхонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoira Alavxanovna	



O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI

Suleymanova Shoira Alavxanovna

Xalqaro Nordik Universiteti "Iqtisodiyot va biznesni boshqarish" kafedrası v.b. dotsenti

ORCID: 0009-0009-9001-8637

Email: shoirasuleymanova1985@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston startap ekotizimining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va uning barqaror o'sishga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda mamlakatda startaplarni qo'llab-quvvatlash jarayonlari, ularning yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy etishdagi ahamiyati hamda milliy iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, startap ekotizimini rivojlantirishda venchur kapital bozori, huquqiy baza, kadrlar salohiyati va infratuzilmaning o'rni baholanadi.

Kalit so'zlar: startap ekotizimi, innovatsiya, iqtisodiy o'sish, venchur kapital, infratuzilma, kadrlar tayyorlash, xalqaro hamkorlik.

Abstract. The article examines the role of Uzbekistan's startup ecosystem in economic development and its impact on sustainable growth. The study analyzes the processes of supporting startups in the country, their significance in creating new jobs and implementing innovative ideas in practice, as well as their contribution to the national economy. In addition, the article assesses the role of the venture capital market, legal framework, human resources potential, and infrastructure in the development of the startup ecosystem.

Keywords: startup ecosystem, innovation, economic growth, venture capital, infrastructure, human resource development, international cooperation.

Аннотация. В статье рассматривается роль стартап-экосистемы Узбекистана в экономическом развитии и её влияние на устойчивый рост. В исследовании анализируются процессы поддержки стартапов в стране, их значение в создании новых рабочих мест и внедрении инновационных идей на практике, а также вклад в национальную экономику. Кроме того, оценивается роль венчурного капитала, правовой базы, кадрового потенциала и инфраструктуры в развитии стартап-экосистемы.

Ключевые слова: стартап-экосистема, инновации, экономический рост, венчурный капитал, инфраструктура, подготовка кадров, международное сотрудничество.

KIRISH

Har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida startaplar muhim drayver hisoblanadi, chunki ular innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va raqobatbardoshlikni oshirishda katta o'rin tutadi. Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida startap ekotizimlari milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi hamda xalqaro integratsiyasi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda ham keyingi yillarda startaplarga katta e'tibor qaratilib, davlat qo'llab-quvvatlash dasturlari, IT Park va texnoparklar, akseleratsiya markazlari hamda grant mexanizmlari orqali yosh tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va venchur kapital bozorining rivojlanishi mahalliy startaplarning jahon bozoriga chiqishiga turtki bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Startap ekotizimi kontsepti atrofida shakllangan asosiy nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqqanda, Eric Ries 2011-yilda ilgari surgan "Lean Startup" metodologiyasi biznes-model sinovlari va tez iteratsiyalar orqali resurslardan samarali foydalanishni ta'kidlaydi. Steve Blank esa startap muvaffaqiyati omillarini mijoz topish, ehtiyojni aniqlash va bozorda sinovdan o'tkazish jarayonlari orqali amaliy tarzda yoritadi. Daniel Isenberg 2010-yilda startap ekotizimlarini faqat texnologik elementlar majmui emas, balki madaniy, institutsional va moliyaviy subyektlar uyg'unligi sifatida talqin qilib, siyosat ishlab chiquvchilarga tizimli yondashuv zarurligini bildiradi.



Ethan Spigel 2017-yilda ekotizimlarni ijtimoiy va institutsional aloqalar tarmog'i sifatida tasniflab, mintaqaviy xususiyatlarning innovatsion faoliyatga bevosita ta'sirini asoslaydi. Brad Feld 2012-yilda jamoaviy yondashuv va mahalliy liderlikning ahamiyatini ta'kidlab, uzoq muddatli hamjamiyat qurilishi orqali barqaror startap muhitini yaratish mumkinligini amaliy misollar orqali ko'rsatadi.

Empirik tadqiqotlar moliyalashtirish, institutsional muhit va xalqaro aloqalarning startaplarning barqarorligiga ta'sirini muntazam ravishda tasdiqlaydi. Josh Lerner va boshqa moliyaviy iqtisodchilar venchur kapitali hamda korporativ investorlarning mavjudligi yangi g'oyalarni tijoratlashtirish va masshtablash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar. AnnaLee Saxenian 1994-yilda mintaqalararo innovatsion tafovutlarni tahlil qilib, diaspora va professional tarmoqlar orqali bilim oqimlari startaplarning rivojlanishiga kuchli turtki berishini aniqlagan. Mariana Mazzucato 2013-yilda davlatning faol rolini — ilmiy tadqiqotlar, texnologik infratuzilma va bozorni shakllantiruvchi mexanizmlarni moliyalashtirish orqali barqaror innovatsiyalarni ta'minlashdagi asosiy omil sifatida baholaydi. Global Entrepreneurship Monitor (GEM) hamda Jahon banki hisobotlari esa mikro-darajadagi tahlillar asosida regulyator muhit, infratuzilma sifati va inson kapitali darajasi startap faoliyat ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mahalliy sharoitlarda korxonaga rag'batlarini moslashtirish hamda iqtisodiy siyosatni integratsiyalash startaplarning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlash uchun zarur shart sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqotlar umumiy xulosasi shundan iboratki, startap ekotizimi — bu bir vaqtning o'zida institutsional islohotlar, moliyaviy infratuzilma, yetakchi jamoalar va bilim almashinuvi mexanizmlarini talab qiluvchi kompleks tizimdir. Uning barqaror rivojlanishi siyosat ishlab chiquvchilar, universitetlar, investorlar va hamjamiyatlar o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik, shuningdek, uzoq muddatli strategik yondashuv mavjud bo'lgandagina ta'minlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekistondagi startap ekotizimining imkoniyatlari va to'siqlari tahlil qilindi. Obyekt sifatida IT Park, texnoparklar va akseleratsiya dasturlari orqali faoliyat yuritayotgan startaplar tanlandi. Ma'lumotlar ilmiy adabiyotlar, rasmiy statistika va xalqaro hisobotlar asosida to'plandi. Tahlilda iqtisodiy hamda taqqoslama usullar qo'llanib, venchur kapital bozori va xalqaro tajriba bilan solishtirish amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda keyingi yillarda startap ekotizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan IT Park, texnoparklar, akseleratsiya dasturlari va grantlar orqali yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi shakllanmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda innovatsion startaplarning to'liq rivojlanishiga to'siq bo'layotgan qator muammolar ham mavjud: investitsiya bozorining rivojlanmagani, kadrlar yetishmasligi va byurokratik cheklovlar.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanish yo'lidan bormoqda va bu jarayonda innovatsiyalar, axborot texnologiyalari hamda startaplar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi 2017-yildagi 26,6 milliard dollardan 2023-yilda 62,6 milliard dollarga yetdi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 3,3 milliard dollardan 22,3 milliard dollargacha ko'paydi [7]. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning xalqaro investitsiyaviy jozibadorligi ortib, biznes uchun qulay muhit shakllanayotganini anglatadi.

Iqtisodiy barqarorlikning yana bir muhim ko'rsatkichi sifatida inflyatsiya darajasi 2017-yildagi 14,4 foizdan 2023-yilda 8,8 foizgacha pasaydi. Yalpi ichki mahsulot hajmi esa 62,1 milliard dollardan 90,8 milliard dollarga o'sdi [8]. Bu o'sish mamlakatda iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlari amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, aholining yosh tarkibi ham startaplar uchun katta imkoniyat yaratmoqda: aholining 60 foiz qismi 30 yoshdan kichik, ishga layoqatli aholi soni esa 21 million nafarga yetgan [8]. Bu holat yangi innovatsion g'oyalarni amalga oshirish uchun yosh va faol inson kapitali mavjudligini ko'rsatadi.


Raqamli infratuzilma so'nggi yillarda sezilarli rivojlandi. Mamlakatda 31 million internet foydalanuvchi mavjud bo'lib, internet qamrovi 99 foiz darajani tashkil etadi. Davlat xizmatlarining 67 foizi onlayn tarzda taqdim etilayotgani raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston mobil internet arzonligi bo'yicha jahonda 22-o'rinni egallab turibdi, bu esa raqamli xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlaydi [9].

Startaplar rivojlanishi uchun IT Park muhim platformaga aylandi. Uning birinchi kompleksi Toshkentda 6,3 gektar maydonda barpo etilgan bo'lib, mamlakat bo'ylab 14 ta filial va 200 dan ortiq IT markaz faoliyat yuritmoqda. Universitetlarda 46 ta inkubatsiya dasturi tashkil etilgani yoshlar innovatsiyasini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. 2017-yilda IT Park rezidentlari atigi 147 ta kompaniyadan iborat bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 2400 dan oshdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar soni esa 6 yil ichida 4 tadan 582 tagacha ko'paydi [10].

IT Park rezidentlari uchun soliq va moliyaviy imtiyozlar keng ko'lamda joriy etilgan. Korporativ soliq, ijtimoiy soliq, mulk va yer solig'i bekor qilingan, import xizmatlariga QQS qo'llanilmaydi. Dividendlar uchun 5 foiz, jismoniy shaxslar daromad solig'i uchun esa 7,5 foizlik stavka belgilangan. Shu bilan birga, Zero Risk dasturi doirasida ofis maydonlari, texnik jihozlar, xodimlarning oylik ish haqining bir qismi va kadrlar tayyorlash xarajatlari qoplab beriladi [10].


Xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy rejim ham joriy etilgan. IT Park startaplarni qo'llab-quvvatlashda Birlashgan Arab Amirliklari va Singapur modellariga yaqin maxsus huquqiy maydonga ega [11]. Unda intellektual mulkni himoya qilish, xalqaro bank xizmatlari, mehnat munosabatlari va soliq tizimlari xalqaro standartlar asosida yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy nizolar xalqaro arbitraj orqali hal etiladi.

Eksport salohiyati ham jadal o'smoqda. Agar 2017-yilda IT xizmatlari eksporti atigi 600 ming dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 344 million dollarga yetdi. Eksport tarkibining 56 foizi IT xizmatlariga, 27 foizi biznes jarayonlarni autsorsing qilishga (BPO), 9 foizi kreativ industriya va GameDev'ga, 8 foizi esa dasturiy mahsulotlarga to'g'ri keladi. Eksport geografiyasi ham diversifikatsiya qilingan: 45 foizi Shimoliy Amerikaga, 27 foizi MDH va Osiyo–Tinch okeani mintaqasiga, 21 foizi Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaga, 6 foizi esa Yaqin Sharq va Afrikaga yo'naltirilgan (1-rasm) [12].



1-rasm. O'zbekiston IT Park tarkibi (2023 y.) [12]

2023-yilda O'zbekiston IT Park eksportining asosiy qismini IT xizmatlari (56 foiz) tashkil etdi, bu esa sohaning xalqaro bozordagi yuqori talabini ko'rsatadi. BPO xizmatlari 27 foiz bilan ikkinchi o'rinda turib, arzon va malakali ishchi kuchiga tayanadi. GameDev va ijodiy xizmatlar 9 foiz ulushga, dasturiy mahsulotlar esa 8 foiz ulushga ega bo'ldi. Ushbu tarkib mamlakat IT sohasi asosan xizmatlar eksportiga yo'naltirilganini, biroq diversifikatsiya jarayoni boshlanganini anglatadi (2-rasm) [11].



2-rasm. O'zbekiston IT xizmatlari eksporti hajmi (mln.AQSh dollari) [11]



Grafikdan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda IT xizmatlari eksporti so'nggi olti yilda keskin o'sdi. Agar 2017-yilda atigi 0,6 million dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 46 million dollarga yetdi. 2022-yilda eksport hajmi uch barobar ko'payib, 144 million dollarni tashkil etdi. 2023-yilda esa 344 million dollargacha o'sib, 2017-yilga nisbatan 574 barobar oshdi. Ushbu tendensiya mamlakatda IT sohasi va startap ekotizimining jadal rivojlanayotganini, xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot hamda xizmatlar taklif etilayotganini tasdiqlaydi.

Eksport geografiyasi ham diversifikatsiya qilingan: 45 foizi Shimoliy Amerikaga, 27 foizi MDH va Osiyo–Tinch okeani mintaqasiga, 21 foizi Yevropa Ittifoqi hamda Buyuk Britaniyaga, 6 foizi esa Yaqin Sharq va Afrikaga yo'naltirilgan [13].

Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda startap ekotizimi bosqichma-bosqich shakllanib, barqaror rivojlanish yo'lida ulkan salohiyatga ega. Yosh va faol aholi, keng qamrovli raqamli infratuzilma, IT Park orqali yaratilgan qulay biznes muhiti hamda xalqaro integratsiya mamlakatni mintaqada innovatsion markazga aylantirmoqda. Barqaror rivojlanishning kelgusi yo'llari esa kadrlar tayyorlashni yanada kuchaytirish, innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish bilan uzviy bog'liq.

O'zbekistonda startap ekotizimi jadal rivojlanish bosqichida bo'lib, mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, uni yanada takomillashtirish uchun muhim yo'nalishlar ham mavjud. Xususan, venchur kapital bozorining shakllanishi hali dastlabki bosqichda, biroq bu sohada xususiy investitsiyalarni jalb etish, xalqaro fondlar bilan hamkorlikni kengaytirish va davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish orqali katta salohiyat mavjud. Startaplarni qo'llab-quvvatlashda venchur fondlari, biznes inkubatorlar va akselerator dasturlarini rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Huquqiy baza va normativ-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish startaplar uchun yanada qulay muhit yaratish imkonini beradi. Litsenziya olish jarayonlarini soddalashtirish, soliq tizimini moslashtirish va hujjat aylanishini raqamlashtirish orqali yosh tadbirkorlar faoliyatini yengillashtirish mumkin.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida startaplar uchun grant, subsidiyalar va mikromoliyalashtirish dasturlarini kengaytirish, shuningdek, investorlar uchun soliq imtiyozlarini yaratish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. IT va muhandislik sohasida kadrlar salohiyatini oshirish uchun ta'lim tizimini innovatsion yo'nalishlarga moslashtirish, amaliy loyihalar asosida o'qitish hamda xalqaro sertifikatlash dasturlarini joriy etish orqali malakali mutaxassislar bazasini mustahkamlash mumkin.

Shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish — yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy texnoparklar va ilmiy laboratoriyalarni kengaytirish orqali innovatsion g'oyalarni tezkor sinovdan o'tkazish va bozorga chiqarish imkoniyatlarini oshiradi. Bu yo'nalishlarda bosqichma-bosqich islohotlarning amalga oshirilishi O'zbekistonda startap ekotizimining barqaror o'sishini ta'minlash va uni mintaqadagi ilg'or innovatsion markazlardan biriga aylantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

O'zbekistonda startap ekotizimining rivojlanishi milliy iqtisodiyot uchun muhim natijalarni keltirishi mumkin. Avvalo, startaplar yangi ish o'rinlari yaratish orqali yoshlar ishsizligi muammosini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, IT va fintex sohasidagi kichik kompaniyalar katta korporatsiyalar bilan raqobatga kirishib, ko'plab mutaxassislarni ish bilan ta'minlay oladi. Shu bilan birga, startaplar iqtisodiy samaradorlikni oshirishga hissa qo'shadi. Ular raqamli xizmatlar, onlayn ta'lim, telemeditsina va agrotexnologiya yo'nalishlarida bozordagi bo'shliqlarni to'ldirib, ichki talabni qondirish bilan birga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatini ham yaratadi. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda innovatsion startaplar YAIMning 5–10 foizini tashkil etadi. O'zbekistonda ham venchur kapital bozori va innovatsion infratuzilma rivojlansa, kelgusi o'n yillikda ular milliy iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Startaplar mamlakatning eksport salohiyatini ham kengaytiradi. Ayniqsa, IT outsourcing xizmatlari, mobil ilovalar va fintex mahsulotlari xalqaro bozorda talab yuqori bo'lgan sohalar hisoblanadi. Mahalliy startaplar raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqara olsa, bu tashqi savdo balansini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Nihoyat, startaplar innovatsion muhitni shakllantiradi. Ular nafaqat yangi g'oyalarni amalga oshiradi, balki yirik korporatsiyalar va davlat sektorida ham raqobat hamda samaradorlikni kuchaytiradi. Bu esa umumiy iqtisodiy tizimda barqaror o'sish jarayonlarini rag'batlantirib, milliy iqtisodiyotning yangi drayveriga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda startap ekotizimi milliy iqtisodiyotning yangi o'sish nuqtasiga aylanib, innovatsion taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat qo'llab-quvvatlashi, yoshlar salohiyati va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari innovatsion iqtisodiyot uchun mustahkam asos yaratmoqda. Startap sohasini rivojlantirish uchun moliyaviy, huquqiy, ta'limiy va infratuzilmaviy islohotlarni amalga oshirish, sarmoyadorlarni jalb etish, litsenziya jarayonlarini soddalashtirish, IT va tadbirkorlik ta'limini kuchaytirish hamda zamonaviy infratuzilmani yaratish zarur. Shu bilan birga, mahalliy startaplarni xalqaro akseleratorlar va investitsiya maydonlariga chiqarish



muhim ahamiyatga ega. Bunday islohotlar O'zbekistonda barqaror startap ekotizimini shakllantirib, mamlakatni Markaziy Osiyodagi raqobatbardosh innovatsion markazga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Saydullaeva, K. "Venture Capital as a New Way of Funding Technology Startups in Uzbekistan." *European Journal of Applied Science, Engineering and Technology* 2, no. 6 (2024).
2. Kurpayanidi, K. "Technological Entrepreneurship as a Driver of Economic Growth in Uzbekistan." *Economic Development and Analysis* 3, no. 2 (2025): 51–56.
3. Ries, E. *The Lean Start-up*. New York: Crown Business, 2011.
4. Audretsch, D. B. "Small Business and Entrepreneurship: The Emergence of a Scholarly Field." *20 Years of Entrepreneurship Research* (2014): 49.
5. Латов, Ю. В., и Латова, Н. В. "Вопросы регулирования экономики." *Journal of Economic Regulation* 6, no. 1 (2015).
6. Kurpayanidi, K. "Digital Transformation and Institutional Framework of E-Commerce in Uzbekistan." *International Journal of Business, Law, and Education* 6, no. 2 (2025): 1215–1227.
7. World Bank. *Uzbekistan Country Data*. 2023. Accessed at <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>.
8. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. *Demographic and Economic Indicators of Uzbekistan*. 2023. Accessed at <https://stat.uz>.
9. Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan (MICT). *Digital Economy Development Programs*. 2023. Accessed at <https://mitc.uz>.
10. IT Park Uzbekistan. *Results of 2023: Transformation and Plans for 2024*. 2024. Accessed at <https://it-park.uz>.
11. Spot.uz. "IT Park Resident Companies and Export Indicators." 2024. Accessed at <https://spot.uz>.
12. Gazeta.uz. "Uzbekistan's Startup Ecosystem and Investment Climate." 2024. Accessed at <https://gazeta.uz>.
13. United Nations Development Programme (UNDP). *Digital Economy in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*. 2024. Accessed at <https://undp.org/uzbekistan>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100